

# INGLIZ TILIDA GAPIRISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK TILINING O'RNI

**Nazarova Feruza Sindorqulovna JDPI o'qituvchisi**

**Rashidova Shalola Nasimjon qizi JDPI talabasi**

***Abstrakt:** Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganishdan avval o'z ona tilini bilishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch tushunchalar:** Ona tili - o'zbek tili, grammatika, gap bo'laklari, gap tuzilishida tartib, zamonlar*

Bugungi kunda biz ingliz tilini o'rganish jarayonida, albatta, o'zbek tiliga taqqoslab o'rganamiz. "O'zbek tili amaliy grammatikasi" fani ta'lim muassasasida o'zbek tili o'qitishning bosh maqsadini ro'yobga chiqarishni tilning jamiyatda tutgan o'rni, bajaradigan vazifasini talabalar ongiga singdirishdan boshlaydi. Fikr faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilishi zarur. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarni o'zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. "O'zbek tili amaliy grammatikasi" fani talabaga ona tilining grammatik qonuniyatlarini o'rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi.

O'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar doirasida hozirgi o'zbek tili qonun-qoidalari, fonetika va orfoepiya, grafika va orfografiya, so'z ma'nosi, til lug'at tarkibi taraqqiyoti, frazeologiya, til lug'atining funksional-uslubiy toifalanishi, leksikografiya, so'z yasalishi, morfologiya, so'zlarning turkumlarga bo'linishi, ot, sifat fe'l, ravish, yordamchi so'z turumlari, ularning matnda qo'llanishi, sintaksis bo'limi, gap: sodda gap, qo'shma gap, murakkablashgan gap, ularning lug'aviy-grammatik tabiati, qo'llanish o'rinlari va uslubiy xususiyatlari haqida chuqurroq bilimga ega bo'lishi; hozirgi o'zbek tili va uslubiyatining umumiy muammolari, tushunchalari,

ayniqsa, funksional uslublar va uslubiy normalarga oid nazariy bilimni atroflicha o'rganishi; til birliklaridan to'g'ri foydalanib, fikr ifodalay olishi; adabiy til normalari, ularning funksional uslublardagi o'rni, nutq madaniyati nazariy asoslarini egallash kabi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Deyarli O'zbekistonning uchdan ikki qismi ingliz tilini o'rganishga, gapirishga harakat qilmoqda. Bu talabga muvofiq turli ingliz tilini o'rgatuvchi o'quv kurslari tashkil etilgan. Ushbu kurslarga ko'plab yoshlar qatnashib ingliz tilini o'rganishmoqda. Ammo ingliz tilini o'rgatuvchi mutaxassislar ingliz tilini o'rganuvchi o'quvchilarga dars jarayonida, ya'ni ingliz tilini o'rgatish vaqtida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Sababi chet tilini o'rganuvchi chet tilini o'rganishdan avval o'z ona tilini yaqindan bilmasligidir. To'g'ri, ular ona tilida (o'zbek tili) gapirishadi, ammo so'zdan so'zning farqi haqida, grammatikasi haqida, fonetikasi haqida yetarlicha bilimga ega emaslar.

Ingliz tili grammatikasi biroz chuqur o'rganishni talab etadi. Chunki ingliz tilida zamonlar soni, gap tuzilishidagi tartib o'zbek tilidan tubdan farq qiladi. Ingliz til grammatikasini o'rganishni oldiga maqsad qilib qo'ygan kishi, eng avvalo, o'zbek tilining sintaksis bo'limini, o'zbek tilining izohli lug'atidagi so'z va atamalarning hamda shu atamalarning ingliz tilidagi muqobillari yaxshi o'zlashtirib tugatish kerak.

Men o'quvchilarga ingliz tilida gap tuzish uchun oson va tushunarli usullardan foydalanishga harakat qilaman. O'quvchi, eng avvalo, gap bo'laklari haqida yetarlicha bilim-ko'nikma hosil qilib, eganing, kesimning aniqlovchining, to'ldiruvchining, holning so'roqlarini yod oladi. O'quvchilar o'zbek tilida gap bo'laklarini bilib olgach, o'zbekcha gaplarni ingliz tiliga tarjima qila boshlaydi.

Masalan,

o'zbek tilidagi gap	men	kecha	qoidalarni	yozdim
So'roqlari	kim?	qachon?	nimani?	nima qildim?
Gap bo'lagi	ega	hol	to'ldiruvchi	kesim

Ingliz tilidagi tartibi: birinchi ega, ikkinchi kesim, uchinchi to'ldiruvchi, to'rtinchi aniqlovchi, beshinchi hol. Demak yuqoridagi gapni ingliz tiliga tarjima qilamiz.

I wrote rules yesterday.

Bu usul juda oddiy va juda oson. Bu usulda o'quvchi o'zbek tilidagi gapni ingliz tiliga qiyinchiliksiz tarjima qila oladi. Chunki yuqoridagi usulda, o'zbek tilidagi gapni bosqichma- bosqich ingliz tiliga tarjima qilingan.

Ingliz tilida gap tartibi o'zbek tilidagi gap tartibidan farq qiladi:

Ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol.

Yuqoridagi usulda 3-bosqichi ana shu tartibni ko'rsatgan. Sekin - asta o'quvchi o'zbekcha matnlarni ham ingliz tiliga tarjima qila oladi. O'quvchida o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish ko'nikmasini hosil bo'la boshlashi bilan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni mashq qila boshlashi talab etiladi. Chunki o'quvchida ikkala ko'nikma ham bo'lishi zarur. Ikkala ko'nikmani o'quvchida shakllantirish jarayonida uning nutqi o'sib boradi. Fonetika bo'yicha bilimlari o'quvchiga nutqini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar Inglizcha matnlarni nafaqat tarjima qiladi, balki yodlab, so'zlab berishadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar talaffuzidagi nuqsonlardan xoli bo'lib boradi. Bunday vaziyatda o'qituvchidan o'quvchining fonetik kamchiliklarini to'g'irlab, to'ldirib borishi talab etiladi. O'quvchi kichik hikoya, ertaklarni tarjima qilishga harakat qiladi. Bunday paytda o'quvchilarga ertak kitobchalar o'qish va tarjima qilish tavsiya etiladi

## **Adabiyotlar**

1. O'zbek tili amaliy grammatikasi"
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili (H.Jamolxonov)
3. Speak English Beginner's Guide to Everyday Conversation Yogesh Kumar.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati N.N.Rahimjonova 2019